

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»

Namangan davlat pedagogika instituti

rektori

B.E. Xusanov




2024-yil

«MA'QULLANDI»

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi OAK raisi**

A.T. Yusupov



« 7 » 06 2024-yil

**“Pedagogik mahorat” fani
bo'yicha malakaviy imtihon**

D A S T U R I

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi

Rayosatining 2024 yil « 7 » 06 dagi 355/4-sonli qarori bilan
tasdiqlangan

NAMANGAN - 2024

ANNOTATSIYA

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirining 2017 yil 14 sentyabrdagi “ Vazirlik tasarrufidagi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida oliy malakali ilmiy va ilmiy –pedagog kadrlar tayyorlash rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 660-sonli buyrug‘iga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasinng 2017-yil 22- maydagi “ Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi 304- sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim to‘g‘risida” Nizom talablariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartiga asoslangan holda, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun talablariga mos ravishda Pedagogika nazariyasi va tarixi» va «Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat fanlaridan qo‘shimcha imtihonlari bo‘yicha talabgorlar uchun tuzildi.

Tuzuvchilar:

p.f.b.f.d., dots..M.Asranboyeva

p. f.d., prof. M.Y.Sobirova

Taqrizchi:

p. f.d., prof. O‘.M.Asqarova

p. f.b.f.d., dots. M.A.Asqarova

KIRISH

Ushbu dastur: pedagogika fanlarning metodologiyasi; pedagogika nazariyasi va tarixi, umumiy pedagogika, pedagogik mahorat fanlarning na'munaviy dasturlari asosida tuzildi.

Dasturning maqsadi – izlanuvchilarni fanni o'qitishdan maqsad talabgorlarni pedagogika o'qitish metodologiyasiga oid bilim ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Dasturning vazifasi – tadqiqotchilarni pedagogik fanni o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; metodik jixatdan pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash; pedagogik mahoratning o'ziga xosliklarni xisobga olgan holda ta'lim va tarbiyaning zamonaviy usullarini, texnologiyalarni keng doirada qo'llay olishga yo'naltirish pedagogik faoliyatini amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorlashni shakillantirishdan iborat. Fan bo'yicha talabalarni bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar.

Dastur bo'yicha talabgorlarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar:

“Pedagogik mahorat” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Pedagogik mahorat fanining predmeti, maqsad va vazifalari; ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va strategiyasi; pedagogik mahorat fanining mazmuni va ilmiy asoslari, uning kategoriya va tamoyillari; o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va metodlariga qo'yilayotgan zamonaviy talablar Pedagogik mahoratda o'qitish metodlarining tasnifi va asosiy jihatlari; psixologiya kursini tuzish uchun asos bo'lgan tamoyillar; psixologiya fanlarini o'qitish

metodikasining qonuniyatlari; o'qitish tamoyillari; dars o'quv faoliyatini tashkil etish sharti sifatida; o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari; ma'ruza mashg'uloti va uning mazmuni; ma'ruza o'qishga qo'yiladigan talablar; seminar mashg'ulotining mohiyati va turlari; o'qitish metodikasi ***tasavvurga ega bo'lishi;***

- pedagogik mahorat fani mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlarini; pedagogik fanlar mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni; pedagogik fanlarni o'qitish metodlari tasnifini; o'qitishning texnik vositalari va axborot texnologiyalarda amaliy ishlashni; zamonaviy pedagogik fan yutuqlari va ilg'or pedagogik tajribalardan amaliy foydalanib, mustaqil bilim olishni; o'quvchilarni shaxsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olish, auditoriya bilan o'zaro aloqalar taktikasini o'rnatish va psixologik to'g'ri munosabatlarni boshqarishni bilishni; ta'lim standartlarining yangi talablari va o'zining ehtiyojlari bilan bog'liqlikda o'qitish va ta'lim olganlikni tashxis etishning turli usul va vositalaridan samarali foydalanish hamda metodik fanlarni o'rganishda o'quv mashg'ulotlari taksonomiyasini; o'qitishda ko'rgazmali va amaliy metodlar; o'qitishda ta'limiy metodlar; o'qitishning interfaol usullari; dasturlashtirilgan ta'lim;

- pedagogik va metodik fanlardan bilimlarni nazorat qilish va baholashni tashkil qilishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

- ta'lim-tarbiyani diagnostika qilish hamda nazorat qilishning turli vositalari va usullaridan samarali foydalanish; ta'lim standartlarining yangi talablariga mos ravishda mustaqil yangi o'qitish usullarni yaratish; ilg'or pedagogik tajribalar va pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda ta'lim berish; individual, shaxsiy voyoshga oid o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda auditoriya bilan pedagogik muloqot va o'zaro harakatni tashkil etish; pedagogik mahorat fanining tamoyillarini qo'llay olish; pedagogik mahorat asosida bilimlarni nazorat qilish, amaliy topshiriqlarni bajarish; talaba o'qitishning metodik xususiyatlari, o'rta maxsus va oliy ta'limda pedagogik mahorat fanining o'ziga xosligi, dars jarayoniga metodlarni qo'llash, talabalarni mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish; pedagogika va metodik fanlarni o'qitishda bilimlarni nazorat qilish shakllarini qo'llash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;

Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (falsafa, mantiq), matematik va tabiiy (yosh fiziologiyasi va gigiena), umumkasbiy (pedagogika nazariyasi, pedagogik mahorat) fanlari bilan o'zaro aloqada olib boriladi.

Pedagogik mahorat tushunchasi va ta'rifi: pedagogik fanlarning tushunchasi, o'quv jarayoni, o'quv muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishning yangi metod va shakllarga qo'yiladigan zamonaviy talablar. O'zbekiston Respublikasida ta'limning rivojlanishi.

Ta'lim jarayonida pedagog shaxsi ta'lim amaliyotida va pedagogik fikr tarixida pedagogning mahorati masalalari. Pedagogik qobiliyat. Pedagogning kommunikativ qobiliyati. Muloqot madaniyati va ta'lim oluvchining psixologik faoliyati. Pedagogik texnika va uni shakllantirish usullari. O'quv va tarbiya jarayonida pedagog mahorati. Pedagog mehnatini tashkil etishning ilmiy asoslari. Pedagogik tajriba orttirish tizimi, tadqiqot metodlari, hozirgi ta'lim muassasalarida ilg'or pedagogik g'oyalar, tajribalarning taraqqiyoti va uni hayotga tatbiq etish yo'llari. Pedagogik mahorat taraqqiyot tarixi. Mustaqil malaka oshirish va o'z-o'zini nazorat qilish. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot mahorati, pedagogik tajriba va uni tatbiq etish, pedagog faoliyatida sharqona muomala madaniyati asoslari. Pedagogik texnika va uning komponentlari.

B A H O L A S H M E Z O N I

Mazkur o'quv dasturi asosida fanlaridan tuzilgan variantlar savollariga og'zaki javob qaytarish tarzida amalga oshiriladi.

Dastur savollari pedagogika fanining eng dolzarb muammolari bilan uning muhim tarmog'i bo'lgan: pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi, umumiy pedagogika, pedagogik texnologiyalar, tarbiyaviy ishlar metodikasi, xalq pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika fanlarining ma'lumotlari asosida tuzildi.

Har bir variantda 4 tadan savol bo'lib, javoblar "0" baldan **"100"** balgacha baholanadi.

Variantdagi har bir savol uchun maksimal 25 ball belgilangan.

Variantdagi har bir savolga yozilgan javoblarning mazmuniga qarab, ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni to'liq va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti bilan bog'liq xolda yoritilgan bo'lsa, 22– 25 balgacha qo'yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni yaxshi yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilgan bo‘lsa, 18 - 20 balgacha qo‘yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o‘rtacha yoritilgan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan kamroq foydalanilgan bo‘lsa, 14 – 16 balgacha qo‘yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmagan va hozirgi zamon fan – texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmagan bo‘lsa, 0-13 balgacha qo‘yiladi.

D A S T U R M A Z M U N I

1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning maqsadi, predmeti va vazifalari.
2. “Pedagogik mahorat” fanining ilmiy-nazariy va amaliy asoslari.
3. Sharq mutafakkirlari Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiylarning ijodiy meroslarida muloqot va muomala madaniyati, munosabatga kirishish mahorati, ularni egallashga qo‘yiladigan talablar haqidagi ilg‘or fikrlar.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni asosida o‘qituvchi faoliyatiga qo‘yiladigan talablar.
5. Pedagogik mahoratni egallash vositalari.
6. A.Komenskiy, A.Disterverg, K.D.Ushinskiylarning o‘qituvchi, uning kasbiy tayyorgarligi hamda pedagog mahoratining ta’lim-tarbiya rivojidagi o‘rni borasidagi qarashlari.
7. O‘qituvchi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari: pedagogik bilimlar; pedagogik zakovat; pedagogik qobiliyat; pedagogik texnika.
8. Pedagogik amaliyot davrida o‘qituvchi mahorati masalalari.
9. Sharq mutafakkirlari Al-Xorazmiy, Abdulla Avloniy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovuslarning ijodiy meroslarida tarbiyaga oid ilg‘or fikrlari.
10. Eng qadimgi davrlardan eramizning XII asrlarigacha o‘qituvchilik faoliyati to‘g‘risida ijtimoiy qarashlar.
11. Yunon faylasuflari asarlarida o‘qituvchilarning kasbiy mahorati haqidagi g‘oyalari.
12. Notqlik san’atining kelib chiqish tarixi.
13. Hozirgi davrda o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish masalasi haqida.
14. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari va psixologik-pedagogik tavsniifi.
15. Yunon va Rim faylasuflari Suqrot, Pluton (Aflotun), Demosfen, Aristotel (Arastu) Tsitseron va Kvintilianlarning asarlarida pedagoglar hamda ularning notqlik san’ati to‘g‘risidagi g‘oyalari.
16. Evropa olimlari o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish to‘g‘risidagi fikrlari.
17. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda ilmiy ijod taraqqiyoti.

18. O'qituvchining kommunikativ vazifalari (pedagogik vaziyat).
19. Pedagogik muloqotda muomala madaniyati haqida tushuncha bering (yuzni o'qish san'ati).
20. Pedagogik vaziyat. Pedagogik nizolarning asosiy sabablari.
21. Nutq texnikasi va uning asosiy xususiyatlari.
22. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish uslublari.
23. O'qituvchining pedagogik muloqotga kirishishida uchraydigan pedagogik nizo va kamchiliklar hamda ularning oldini olish yo'llari.
24. Hozirgi davr pedagog olimlarining ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari.
25. "Muloqot" atamasining falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik mohiyati, muloqot birligi.
26. O'qituvchining nafasolishtexnikasi. Norasmiy sharoitdagi nutq.
27. Muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi.
28. Dars jarayonida ogohlantiruvchi so'zlar, tezlik bilan ta'sir etish, ijro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiqlangan iboralar, hazil orqali anglatish, ma'qullash yoki ayblash.
29. A.Komenskiy, A.Disterverg, K.D.Ushinskiy va K.S.Stanislavskiylarning ta'lim-tarbiya rivojidagi qarashlari.
30. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyatlari.
31. Buyuk allomalar Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniylarning ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari tahlili.
32. Pedagogning his-tuyg'ulari va kayfiyatini boshqara olishi, o'z zimmasiga javobgarlikni ola bilishi, ijodiy holatni tashkil eta olishi kabi sifatleri haqida.
33. Pedagogik texnikani namoyon etishda o'qituvchining tashqi ko'rinishi.
34. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida jonli muloqotni tashkil etish.
35. Hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik faoliyatiga qo'yilayotgan talablar.
36. Pedagogik texnikani egallash mahorati.
37. Pedagogik faoliyatda ovoz apparati va tovushning roli (kasb kasalligi haqida).
38. Muosharat odobi. Sof adabiy tilda so'zlashishga odatlanish. Mehmondo'stlik qoidalari.
39. O'qituvchining kasbiy faoliyatida muloqot tizimi.
40. Dars, o'qituvchining mehnatini ilmiy tashkil etish.
41. O'qituvchi faoliyatida mimika va pantomimikalarning ahamiyati hamda o'ziga xosligi.
42. O'qituvchi faoliyatida sharqona muloqotning tutgan o'rni va pedagogik muloqotni tashkil etishga ta'siri.
43. O'qituvchi nazokatida dilkashlik va pedagogik takt.
44. Hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash muammolari.
45. Shaxsiy ish tajribani to'plash va o'z-o'zini boshqarish.
46. Tarbiyachilik mahoratining mazmuni va jarayoni.
47. Pedagogik takt, pedagogik nazokat me'yori: ixtisos sohasidagi burch, pedagogik adolat, ixtisosga doir vijdon, izzat-nafs va pedagogik oriyat.
48. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyati.
49. O'qituvchining muloqot odobi. Yoqtirish va yoqtirmaslik.

50. O'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarning bilimi va xatti-harakatlarini baholash.
51. O'qituvchi nazokati va odobini shakllantirish, rivojlantirish yo'llari hamda unga erishish shart-sharoitlari.
52. Pedagogning pertseptiv (o'quvchi, talabalarni tushunish) xatolari.
53. Pedagogning o'quvchi-talabalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar va ularni bartaraf etishning o'ziga xos xususiyatlari.
54. Tarbiyachilik mahoratining tarkibiy qismlari.
55. Pedagogik texnika va uni shakllantirish uslublari.
56. Pedagogik texnika.
57. Kasbiy refleksiya va pedagogik faoliyat.
58. O'qituvchining darsdagi va tarbiyachi sifatidagi mahorati.
59. O'qituvchining o'z ruhiy holatini boshqara olish texnikasi.
60. Ta'lim-tarbiya jarayonida kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish.
61. Diqqatning taqsimlanishi, kuzatuvchanlik, muayyan ob'ektni tez anglay olish, aniq va yorqin tasavvur etish, badiiy sezgirlik. Empatiya.
62. Yosh o'qituvchi faoliyatida namoyon bo'ladigan tipik xatolar va ularni tuzatish yo'llari.
63. Nutq texnikasi va madaniyati.
64. Tarbiya texnologiyalarini qo'llashda pedagogik vositalardan foydalanish.
65. Nutq organlari, nutq apparati. Til va nutq.
66. V.A.Suxomlinskiyning pedagogik mahorat masalalari bo'yicha maslahatlari.
67. O'qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati. Tarbiya turlari va metodlari.
68. Ishontirishning og'zaki shakllari.
69. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash.
70. O'qituvchining darsdagi mahorati.
71. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda pedagogik mahoratning roli.
72. O'qituvchining "axborot madaniyati" tushunchasini o'zlashtirishi.
73. SHaxsiy pedagogik tajribani to'plash tizimi.
74. Pedagogik tashxislash asosida o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash usullari.
75. Ishontirishning og'zaki shakllari. Og'zaki nutqning psixologik tuzilishi. Tarbiyaviy jarayon va tarbiya mazmunini modellashtirish.
76. O'qituvchilarning xarakter va individual xususiyatlariga ko'ra toifalarga bo'linishi.
77. Pedagogik mahoratni oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati.
78. O'qituvchining darsdagi va tarbiyachi sifatidagi mahorati.